



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI
BUYRUQ**

“ 02 ” 06 2023 -yil

№ 55-AF

Toshkent sh.

**Tovar va xizmatlar xaridini amalga oshirish jarayonida davlat xaridlarini
o‘tkazish bo‘yicha Xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi va “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda boshqa qonunchilik hujjatlari ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Tovar va xizmatlar xaridini amalga oshirish jarayonida davlat xaridlarini o‘tkazish bo‘yicha Xarid komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Davlat xaridlarini amalga oshirishda Xarid komissiyasi a‘zolari va uning ma’sul kotibi o‘z faoliyatlarini O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi va “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga qat’iy amal qilgan holda tashkil etilishini taminlasinlar.
3. Ushbu buyruq qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi direktorining 2020-yil 20-avgustdagi “Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo‘yicha davlat xaridlarini o‘tkazish Xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risidagi 5/1-i/ch-sonli buyruqqa o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi 58-i/ch-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.
4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor

A.Ubbiyev

**Tovar va xizmatlar xaridini amalga oshirish jarayonida davlat xaridlarini
o'tkazish bo'yicha Xarid komissiyasi
TARKIBI**

1. Ubbiyev Alisher Tairovich – Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi direktori - Xarid komissiyasi raisi
2. Taxirov Bosit Baxtiyarovich – Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi direktori o'rinbosari – Xarid komissiyasi raisi o'rinbosari
3. Shakirov Xasan Rustamovich – Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i – a'zo
4. Shakirova Sevara Baxodirovna – Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i – a'zo
5. Usmonov Xasan Toxirovich – Tashkiliy nazorat va murojaatlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i – a'zo
6. Saidov Muxammadfozil Maxamataminovich – Moddiy-texnik ta'minoti bo'limi boshlig'I - Xarid komissiyasi kotibi (*ovoz berish huquqiga ega emas*)

Izoh: Xarid komissiyasi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning o'rniga tayinlangan yoki lavozim vazifalari yuklatilgan shaxs Xarid komissiyasi a'zosi hisoblanadi.